

Sinf: 4-sinf | Fan: Matematika | Yondashuv: STEM asosida

Mashg'ulotning maqsadi

✦ O'quvchilar doira va silindr kabi shakllarni farqlay olishadi. Ular har bir shaklning asosiy qismlari — radiusi, markazi, balandligi va asosi haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Shakllarni haqiqiy hayotdagi obyektlar bilan bog'lab o'rganadilar.

Mashg'ulot davomiyligi

⌚ 45 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurslar 4-sinf Matematika darsligidagi **Doira va silindr** mavzusidagi topshiriqlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

● Doira – bu markazdan teng masofada joylashgan nuqtalar to'plami.

– Radius, diametr, markaz tushunchasi bilan tanishiladi.

– To'g'ri chizilgan, yassi geometrik shakl.

🧱 Silindr – bu ikkita teng doiradan va ularni birlashtiruvchi egri sirtidan tashkil topgan uch o'lchovli shakl.

– Asos (doira), balandlik, sirt

✦ Hayotiy misollar: tangalar (doira), termos, shisha idish, quvur (silindr)

🔧 **Amaliy mashg'ulot: “Shakllarni yasaymiz va qiyoslaymiz”**

🎯 **Mashg'ulot maqsadi:** O'quvchilar doira va silindrni yasab, ularning tuzilish qismlarini belgilash orqali ularni farqlashni o'rganadilar.

📌 Mashg'ulot bosqichlari:

1. Model yasash (Texnologiya integratsiyasi):

– Rangli kartondan doira kesiladi

– Rulon yoki qog'ozdan silindr shakli yasash

– Har bir shaklning qismlarini belgilash: radius, markaz, asos, balandlik

2. O'lchash va solishtirish:

– Radiusni o'lchash (chizg'ich bilan)

– Silindr balandligi va asos diametrini o'lchab yozish

3. Informatika integratsiyasi:

– Paintda: shakllarni chizish va nomlash mashqlari

STEM fanlar bilan integratsiyasi

Matematika

- Doira va silindr shakllari
- Radius, markaz, balandlik tushunchalari
- Shakllarni solishtirish va tahlil qilish

Texnologiya

- Qog'ozdan shakl yasash
- Reja asosida geometrik modellar yaratish

Informatika

- Shakllarni aniqlash o'yinlari orqali shaklni tanish

Tabiiy fanlar

- Haqiqiy obyektlarning shakli (shisha idish, daraxt tanasi, quvurlar)
- Hajm va shaklni bog'lash

Qiziqarli fakt

 Coca-Cola idishi – bu silindr shaklining mukammal ko'rinishidir!